

Turdiyev Madiyor Mamamazarovich

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

Davlatov Shodiyor Xasanboyvich

Alfraganus universiteti talabasi,

Email: turdiyevmadiyor@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo'qon xonligi - o'zbek xonliklaridan O'zbeklarning minglar urug'idan bo'lgan Shohruxbiy ga asos solganligi. Bu xonlik tarkibiga dastlab qaysi joylar va ularning atrofidagi qishloqlar kirgani va tarixi adabiyoti aholisi davlat tizmi haqida so'z brogan.*

Kalit so'zlar : *Qo'qon xonligi, Xudoyorxon, Po'latxon, Farg'ona vodiysi, O'zbeklar.*

Аннотация: *В данной статье Коканское ханство - одно из узбекских ханств, было основано Шахрухби, членом узбекского рода. Какие места и окрестные села изначально входили в состав этого ханства, и историческая литература рассказывала о государственном устройстве населения.*

Ключевые слова: *Коканское ханство, Худаяр-хан, Полат-хан, Ферганская долина, узбеки.*

Annotation: *In this article, the Kokan khanate was founded by Shahrukhbi, one of the Uzbek khanates, who was a member of the Uzbek clan. Which places and surrounding villages were originally part of this khanate, and the historical literature talked about the population state system.*

Key words: *Kokan Khanate, Khudayar Khan, Polat Khan, Ferghana Valley, Uzbeks.*

Qo'qon xonligi - o'zbek xonliklaridan biri (18–19-asrlar). Poytaxti – Qo'qon. O'zbeklarning minglar urug'idan bo'lgan Shohruxbiy 1709-yilda asos solgan. Bu xonlik tarkibiga dastlab Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Abdurahimbiy davrida Buxoro xonligiga harbiy yurish qilinib, Samarqand egallanadi 1732-yil. Abdulkarimbiy davrida 1746-yil qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini egallab, Qo'qonni qamal qilgan. Qo'qonliklarga yordamga kelgan O'rtepa hokimi Fozilbiy qo'shinlari bilan birgalikda ularni Farg'ona vodiysidan quvib chiqarishgan. Norbo'tabiy davrida Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko'targan g'alayonlari bostirilgan. Mamlakatda sug'orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi birmuncha rivoj topadi va nisbatan arzonchilik bo'ladi. Qo'qon xonligida quyidagi mansablar mavjud bo'lgan: mingboshi, otaliq, shayx ul-islom, qozikalon, qushbegi, mehtar, parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og'asi, inoq, shig'ovul, to'qsoba, miroxur, qoravulbegi va boshqalar. Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan harbiy unvonlar quyidagicha bo'lgan: mingboshi – odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin

ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, zambarakchi va boshqalar ham bo‘lgan. Bulardan tashqari, boshqa harbiy mansablar ham bo‘lgan. Qo‘qon xonligi aholisining soni 3 mln.ga yaqin edi. Chorizm qo‘shinlari uning shim.g‘arbiy viloyatlarini bosib olgach, xonlik hududi ancha qisqarib, asosan, Farg‘ona vodiysi bilan cheklanadi va aholi soni taxminan 2 mln.ga tushib qoladi. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, tojiklar, qirg‘izlar va qashqar (uyg‘ur)lar ham yashashgan. Yashash tarziga ko‘ra, aholi o‘troq, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilardan iborat edi.

18 asr boshida Ashtarxoniylar xonligida hukm surgan siyosiy inqiroz sharoitida Farg‘ona Buxorodan ajralib chiqadi. Markazi Qo‘qonda joylashgan mustaqil davlatga dastavval hojalar, keyin Ming xonlar sulolasi hukmronlik qila boshlaydi. Xonlik o‘z tarkibiga Namangan, Qo‘qon, Andijon va Marg‘ilon viloyatlarini kiritdi.

. Qo‘qon xonligi hududiga ko‘chib o‘tgan qoraqalpoqlar Sirdaryo va Qoradaryo bo‘ylariga o‘rnashib, an‘anaviy xo‘jaligini yuritishni davom ettirdilar. Xullas, Qo‘qon xonligi o‘zining etnik qiyofasining turli-tumanligi bilan ham xarakterlanadi. Holbuki, bunday etnik turli-tumanlik vodiy aholisini o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Nalivkin V.P. Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi. - Qozon, 1886. - 127 b. Sychev N.V. Sulalar kitobi. - M.: AST; Sharq-G‘arb, 2005. - 959 b.- ISBN 5-17-032495-2 (AST); ISBN 5-478-00092-2 (Sharq-G‘arbiy). Markaziy Osiyo tarixi. Tarixiy asarlar to‘plami / Comp. A. I. Buldakov, S. A. Shumov, A. R. Andreev. - M .: Evrolintlar; Rus panoramasi, 2003. - 504 p. — ISBN 5-93165-072-5.